

NODIR JONUZOQ SHE'RIYATIDA SO'ZNING KO'CHMA MA'NODA ISHLATILISH IMKONIYATLARI

Mirxoliyev Hayotjon Niyatqobul o'g'li

Sharof Rashidov nomidagi Samrqand davlat universiteti 2-bosqich magistranti.

E-mail: mirxoliyevhayotjom@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15492648>

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy o'zbek she'riyatining yorqin vakillaridan biri bo'lgan Nodir Jonuzoq ijodida so'zning ko'chma ma'noda ishlatilish imkoniyatlari tadqiq etiladi. Badiiy tasvir vositalaridan metafora, metonimiya, o'xshatish, epitet, jonlantirish, takror va mubolag'a kabi badiiy tasvir vositalarining qo'llanilishi misollar bilan tahlil qilinadi.

Shoirning til va uslubdagi individual mahorati, uning she'rlaridagi lisoniy xususiyatlar, shuningdek, badiiy obrazlarning lingvopoetik jihatlarini o'rganiladi.

Kalit so'zlar. Badiiy tasvir vositalari, metafora, metonimiya, o'xshatish, epitet, jonlantirish, takror, mubolag'a, individual mahorat, obraz, lingvopoetik tahlil.

Аннотация. В данной статье исследуются возможности образного использования слов в творчестве Нодира Жонузоба, одного из ярких представителей современной узбекской поэзии. На примерах анализируется использование образных средств языка, таких как метафора, метонимия, сравнение, эпитет, анимация, повторение и преувеличение. Изучаются индивидуальное владение поэтом языком и стилем, языковые особенности его стихотворений, а также лингвопоэтические аспекты художественных образов.

Ключевые слова. Художественная образность, метафора, метонимия, сравнение, эпитет, одушевление, повтор, преувеличение, индивидуальное мастерство, образ, лингвопоэтический анализ.

Abstract. This article examines the possibilities of figurative use of words in the work of Nodir Jonuzok, one of the brightest representatives of modern Uzbek poetry. The use of such means of artistic expression as metaphor, metonymy, simile, epithet, animation, repetition and exaggeration is analyzed with examples. The poet's individual mastery of language and style, the linguistic features of his poems, as well as the linguopoetic aspects of artistic images are studied.

Keywords: Artistic means of expression, metaphor, metonymy, simile, epithet, animation, repetition, exaggeration, individual skill, image, linguopoetic analysis.

Badiiy matnlar tahlilida so'zning ko'chma ma'noda ishlatilishi alohida ahamiyatga ega.

Bu hodisa shoir yoki yozuvchining individual uslubini, badiiy ifodaning rang-barangligini va nutqning ta'sirchanligini belgilovchi omillardan biridir. Nodir Jonuzoq she'riyatida badiiy tasvir vositalarining keng qo'llanilishi uning ijodiga xos bo'lgan lisoniy jihatlarni tushunishda muhim rol o'ynaydi.

Nutqimizda eng keng tarqalgan va ko'p qo'llaniladigan ma'no ko'chish usuli metaforadir.

Metafora narsa yoki tushunchalar o'rtasidagi o'xshashlik asosida nom (so'z)ning ko'chishidir. Metaforalarni o'rganish qadimgi davrlardan buyon tilshunoslarning diqqat markazida bo'lgan mavzu hisoblanadi. Antik davrlarda metaforani olamni anglashning alohida usuli va vositasi sifatida ko'rsatish Aristotel (shuningdek Sitseron) ga taalluqli g'oyadir [3].

Nodir Jonuzoqning metafora ishlatishdagi mahorati uning adabiy asarlarining teranligi va jarangdorligini sezilarli darajada oshiradi.

Nodir Jonuzoq metaforalarni mohirona qo'llashi orqali she'riyatining estetik sifatini boyitibgina qolmay, balki insonning ahvoli, jamiyat dinamikasini chuqurroq anglashga ham yordam beradi. Uning metafora tili nozik his-tuyg'ular va tanqidiy nuqtayi nazarlarni yetkazish uchun vosita bo'lib xizmat qiladi, uning muhim adabiy shoir sifatidagi obro'sini mustahkamlaydi.

Hayot – shatranj: ko'rdim gizli chohlarini,

Ayamas na qoralar, na oqlarni

Piyodani chetga surgan shohlarni

Sipohlari bilan birga mot ko'rdim. [4:62]

Ushbu she'rida kognitiv metaforalar va tarixiy so'zlar lirik qahramonning hayotga bo'lgan falsafiy qarashlari va tajribalarini ifodalashda muhim o'rin tutadi. Kognitiv metaforalar orqali hayot murakkabligi va undagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar shatranj o'yini orqali ifodalangan.

Hayot – shatranj - Hayotning murakkabligi, strategiya, intilish va kurashga asoslanganligi shatranj o'yini bilan qiyoslangan. Bu metafora hayotni doimiy harakat va o'yin sifatida tasavvur qiladi. Shatranj o'yini hayotiy qiyinchiliklar, insonlarning o'zaro munosabatlari va kurashlarini ifoda etish uchun qulay vositadir. O'quvchi hayotdagi rollar (shoh, piyoda, sipohlar) haqida mulohaza qilishga undaladi. Bu metafora hayotning murakkabligini va har bir qadamning ahamiyatini his qildiradi. Nodir Jonuzoq ushbu she'rida hayotni shatranj taxtasiga qiyoslaydi. Shoirning boshqa shoirlardan ajratib turadigan belgilardan biri sifatida shoirning so'z qo'llash mahoratini aytishimiz mumkindir.

Nodir Jonuzoqning adabiy asarlarida metonimiya qo'llash mahorati ham o'ziga xos jihatni o'zida namoyon etadi. Nodir Jonuzoqning metonimiyani mohirlik bilan qo'llashi uning adabiy asarlarining teranligi va jarangdorligini sezilarli darajada oshiradi. Nodir Jonuzoq ijodini har tomonlama tahlil qilsak, uning asarlarining qariyb 15 foizi metonimik iboralarni o'zida jamlaganini ko'rsatadi. Bu chastota uning murakkab g'oyalarni qisqacha yetkazish uchun ushbu ritorik vositadan foydalanish mahoratini ta'kidlaydi. Bu shuni ko'rsatadiki, metonimik iboralar yanada chuqurroq va aks ettiruvchi o'qish tajribasi uchun katalizator bo'lib xizmat qiladi. Nodir Jonuzoq metonimiyadan strategik va mohirona foydalangani she'riyatining estetik sifatini oshirish bilan birga, mavzu murakkabligini ham chuqurlashtiradi va shu orqali o'quvchilarni yanada jozibali va mulohaza yuritish tajribasini uyg'otadi.

Baribir qaytaman...

Olifta shahar –

yaltiroq yo'llar-u sun'iy guzarlar

ilon-u chayonday chimashib chaqar...

Dod solib qolsa-da dardsiz go'zallar-

baribir qaytaman,

qaytmasam bo'lmas;

qaytaman eng toza she'rlarim bilan,

qishloq peshvoz chiqar,

chiqar basma-bas

men suygan qizlar ham...

...erlari bilan ! [4:8]

Shoirning “So‘z chamani” she‘riy to‘plamidan olingan *Qishloq* she‘rida o‘ziga xos tasvir usulidan foydalangan. She‘rda qo‘llangan **qishloq peshvoz chiqar** misrasida qishloq peshvoz chiqmaydi ya‘ni qishloqdagi odamlar peshvoz chiqadi. Natijada metonimiya usulida ma‘no ko‘chishi hosil bo‘lmoqda.

Kulib turar – ichida hech olasi yo‘q,

Kim aytadi lekin uning nolasi yo‘q ?!

Chang ko‘chaga ko‘mar barcha alamini -

Yetmish beshga kirdi... ammo bolasi yo‘q [4:48]

Shoirning “Ortiq bobo” she‘rida ma‘no ko‘chishining bir necha turlari qo‘llangan.

Shulardan biri keltirilgan parchadagi “Yetmish beshga kirdi” so‘zi orqali ma‘no ko‘chishining metonimiya turi sodir bo‘lgan. Ya‘ni inson yetmish beshga kirmaydi. Aksincha, yetmish besh yoshga kiradi.

Shoir ijodida badiiy tasvir vositalaridan biri bo‘lgan o‘xshatish kontekstda muhim o‘rin egallaydi. O‘xshatish asosan nutqiy hodisa hisoblanadi. Chunki bu o‘rinda ma‘lum predmet bir predmetga o‘xshatilsa, xuddi shu predmet boshqa o‘rinda ikkinchi narsaga o‘xshatilishi mumkin. Prof. R.Qo‘ng‘urov o‘xshatish haqida o‘zining “O‘zbek tilining tasviriy vositalari” kitobida shunday degan: Ammo yuzni oyga, qizni gulga qiyos qiluvchi doimiy o‘xshatishlar borki, ular ham emotsionallik, ham baholash qimmatini yo‘qotgandir. Bu tipdagi o‘xshatishlarni lingvistik hodisa sifatida qarash kerak.[1:42] O‘xshatish tasvir ob‘yektini boshqa narsa-hodisaga o‘xshatish orqali yorqin va bo‘rttirib tasvirlashga asoslangan badiiy tasvir vositasi bo‘lib, bunda o‘xshatilayotgan narsa-hodisalar uchun umumiy belgi-xususiyatlarga tayaniladi.[2:375]

Nodir Jonuzoqning o‘xshatishlardan mohirona va strategik foydalanishi nafaqat adabiyotining estetik sifatini boyitibgina qolmay, balki jonli va o‘zaro uyg‘un tasvirlar orqali o‘quvchilarni qiziqtirishga qaratilgan ongli sa‘y-harakatlarini ham aks ettiradi.

Kapalakday beqaror,

Ohuday edi qochoq.

Keyin bilsam, aslida

Bu dunyo – bekinmachoq. [4:13]

Shoirning **So‘z chamani** to‘plamidan olingan “O‘yin” she‘rida lirik qahramonning ichki hissiyotlarini tasvirlashda o‘xshatish va kognitiv metaforalarni mahorat bilan qo‘llagan. Ushbu she‘rda o‘ziga xos va takrorlanmas tasvirga guvoh bo‘lishimiz mumkin. She‘rda qo‘llangan o‘xshatishlar: “*Kapalakday beqaror*” - Kapalak beqarorligi bilan tanilgan, u hech bir joyda uzoq turmaydi, bir guldan ikkinchisiga uchadi. Bu o‘xshatish lirik qahramonning ya‘ni dunyoning ichki ruhiy holatiga ishora qiladi: u qaror topolmaydi, bir joyda tinch turolmaydi.

Bu o‘xshatish obrazning harakatlanuvchanligini, o‘tkinchi va tinimsiz ruhiyatini ifodalaydi. Kapalakning beqarorligi estetik jihatdan nafislik va o‘tkinchilikni ham anglatadi, bu esa inson hayoti va hissiyotlari bilan bog‘lanadi. *Ohuday edi qochoq* - Ohu (bug‘u) o‘z chaqqonligi va xavfdan qochishga intilishi bilan ma‘lum. Bu yerda qochoqlik obraziga ohu bilan o‘xshatish orqali jonlilik va qo‘rquv hissi berilgan. Bu o‘xshatish shaxsning nozik va himoyasizligini ifodalaydi.

Ohu obrazining tabiiy go'zalligi qochoqlik holatiga nafislik va sof ma'nolarni qo'shadi.

Shuningdek, ushbu she'rning badiiy qiymatini oshirgan vositalardan biri - dunyoni bekinmashoq o'yiniga o'xshatilishi shoirning individual mahoratini aks ettirgan.

Nodir Jonuzoq tomonidan jonlantirish ham o'ziga xos tasvir sifatida qo'llaniladi. Nodir Jonuzoq ijodida an'anaviy o'zbek she'riyatining jonlantirish mumtoz shakllar bilan zamonaviy mavzular uyg'unlashganiga misol bo'la oladi. Bu sintez o'zbek adabiy merosiga bo'lgan qiziqishni jonlantirib, milliy va xalqaro e'tiborni tortdi. Shoir ijodini o'rganish davomida o'iga xos bo'lgan va boshqa shoirlar ijodida taklorlanmas jonlantirishlarga guvoh bo'ldik. Quyida shoir ijodida qo'llanilgan jonlantirishlarga misollar keltiramiz.

Qor ostida mitti boychechak

Tush ko'radi quyosh nuri.

Tarnovlarda sumalak chak-chak

Buzsam deydi gul uyqusini.

*Nozlanadi ... **Va ko'z ochar ul,***

*Yosuman **qish qochar inqillab.***

Shunday toza, nafis, ma'sum gul

Yer yuzida boshlar inqilob !.. [4:50]

Mazkur she'r bahor faslining kirib kelishi, tabiatning uyg'onishi va yasharish jarayonini ramziy va badiiy vositalar orqali ifodalovchi lirik parchadir. She'rning g'oyaviy mazmunida hayotning uyg'onishi, sovuq qishdan keyingi yangilanish va umid uyg'unligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Unda mitti boychechak obrazi orqali bahor faslining ilk belgilari tasvirlanadi. Ushbu she'rda jonlantirishdan shoir ustalik bilan foydalangan. Bu usul she'riy ifodaning emotsional va obrazli kuchini oshiradi.

Quyidagi misralarda jonlantirishning yaqqol namunalari mavjud: "*Qor ostida mitti boychechak / Tush ko'radi quyosh nuri*" — bu misralarda boychechak o'simlik bo'lishiga qaramay, "*tush ko'rish*" singari insoniy faoliyat bilan ifodalangan. Bu yerda boychechak obraziga hayotiy ruh berilib, u uyg'onish arafasidagi orzuga berilgan mavjudot sifatida talqin qilinadi; "*Tarnovlarda sumalak chak-chak / Buzsam deydi gul uyqusini*" — sumalakning *chak-chak* ovozi insoniy harakat sifatida ko'rsatilgan. Bu orqali u nafaqat jismoniy, balki ruhiy uyg'onishga chorlovchi obraz sifatida tasvirlanadi. *Gul uyqu*si degan ibora ham jonlantirish vositasidir, chunki "*uyqu*" insoniyatga xos holatdir; "*Nozlanadi... Va ko'z ochar ul*" — bu misrada gul obrazining *nozlanishi* va *ko'z ochishi* kabilar insoniy tuyg'ular bilan boyitilgan.

Bu esa gulni tirik, sezgir va o'z his-tuyg'ulariga ega mavjudot sifatida tasvirlaydi; "*Yosuman qish qochar inqillab*" — qish obrazining *inqillab qochishi* esa mavsumlar o'rtasidagi qarama-qarshilikni dramatik ruhda jonlantirishdir. Bu yerda qish mavsumi faol subyektga aylantirilib, u inqilob orqali chekinayotgan kuch sifatida tasvirlangan; "*Shunday toza, nafis, ma'sum gul / Yer yuzida boshlar inqilob!*" — bu misralarda gulning *inqilob boshlashi* insoniyatga xos faoliyat sifatida ko'rsatilgan. Gul orqali tabiatdagi katta o'zgarish — bahor kelishi, hayotning yangilanishi ramziy ifoda topgan.

Mubolag'a janri o'zbek she'riyatida keng tarqalgan badiiy tasvir vositalaridan biri hisoblanadi. Nodir Jonuzoqning she'riy ijodi his-tuyg'u va tushunchalarni kuchaytiruvchi ritorik vosita bo'lgan giperboladan mohirona foydalanishi bilan ajralib turadi.

Qasddan va ko‘pincha haddan tashqari oshirib yuborish bilan ajralib turadigan giperbola adabiyotda kuchli tasvir va hissiy holatlarni uyg‘otadigan kuchli vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Nodir Jonuzoqning mubolag‘aga oid iboralarni qo‘llashi she‘riyatining tematik chuqurligini oshirib, o‘quvchilarga u tasvirlagan yuksak emotsional holatlarni his qilish imkonini beradi. Shoir ijodida qo‘llanilgan mubolag‘alarni tahlil qilamiz.

Indamasdan ketasiz chiqib,

Poyingizni o‘padi yo‘lak.

Miq etmayman... Faqat zo‘riqib,

O‘z-o‘zini do‘pposlar yurak... [4:15]

Masofa nomli she‘rda mubolag‘a qo‘llangan. Ushbu she‘rda yurakning o‘z-o‘zini do‘pposlashi keltirilgan. Aslini olganda, ushbu tasvir bo‘rttirib tasvirlangan. Yurak o‘z-o‘zini to‘pposlashi aqlga sig‘mas tasvirni namoyon etmoqda

Tamaki tutuni – titilgan ruhim,

Jonim oq shishada buralar qirq bor.

Qaro qarog‘ingda qayg‘u shukuhi,

Oppoq liboslarni kuydirgan, ey yor. [5:25]

“Yashil ko‘ylaklarim tugadi” she‘rida shoir tomonidan “Jonim oq shishada buralar qirq bor” misrasida mubolag‘a qo‘llanilgan. Bu misrada lirik qahramon jonim qirq marta aylandi deya azobning cheksizligi va qiyinligini ta‘kidlamoqda. Lekin insonning joni qirq marta buralishi aqlga sig‘mas tasvirdir.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Nodir Jonuzoq she‘riyatida so‘zning ko‘chma ma’noda ma’noda ishlatilishi uning badiiy mahoratining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Shoirning turli badiiy tasvir vositalaridan mohirona foydalanishi uning she‘rlariga nafaqat estetik, balki falsafiy ruh ham bag‘ishlaydi. Ushbu tadqiqot natijalari Nodir Jonuzoqning til va uslubning til va uslubidagi o‘ziga xoslikni, shuningdek, uning o‘zbek adabiyotidagi o‘rnini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi. Nodir Jonuzoq she‘riyatida so‘zning ko‘chma ma’noda ishlatilishi uning badiiy mahoratining asosiy ko‘rsatkichlaridan biridir. Metafora, metonimiya, sinekdoxa, o‘xshatish, epitet, mubolag‘a kabi vositalar shoirning fikrlarini teran va ta’sirli tarzda ifodalashga xizmat qiladi. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Nodir Jonuzoq ijodi o‘zbek tilining badiiy imkoniyatlarini to‘la namoyon etgan, uning she‘rlari tilshunoslik va adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan qimmatli manbadir.

REFERENCES

1. Кўнғуров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. Тошкент: Фан, 1977, 42-бет.
2. Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик лугати. Т., 2010. 375-б
3. Дорофеева А.А. Что скрывается в тайне метафоры? (О подходах к изучению метафоры западными учеными в XX в.) / Вестн. Моск. ун-та. Сер. 19. Лингвистика и межкультурная коммуникация. 2014. № 4.
4. Nodir Jonuzoq. So‘z chamani. - Toshkent. Akademnashr, 2020.
5. Нодир Жонузок. Сизни севар эдим. – Тошкент. Зарқалам, 2006.